

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

## **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining  
FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik  
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**1.2023**

**научно-теоретический, методический журнал  
Издаётся с 2001 года**

**Urganch – 2023**

nishdagi variantlari xilma-xil. Bizning lugʻatning tahminiy koʻrinishdagi Frontend qismi quyidagicha belgilanadi.

Aslida, lugʻatda ranglar aks ettirilmaydi. Hozir lugʻat koʻrinishi oʻquvchida aniq taassurot qoldirilishi uchun bu ranglardan foydalanildi. Elektron lugʻat yaratish lugʻat tuzish prinsiplariga amal qilingan holda, soʻzning grammatik belgi va xususiyatlari bilan toʻliq beriladi. Masalan, oʻzbekcha soʻzning ustiga sichqoncha bilan bosilganda, ushbu soʻzning ot turkumiga mansubligi, belgilangan tilga tarjimasini namoyon boʻladi. Biroq genetik jihatdan bir-biriga yaqin boʻlmagan tillarning nomutanosibligi ajralib qoladi. Masalan, nemis tilida rod kategoriyalari boʻlganligi tufayli, soʻzning grammatik belgilari quyidagicha kiritiladi. Masalan, Aalbaum<sup>1</sup> leksikasi mujskoy rodga tegishli boʻlib, bazada *der* rod belgisi, (*e*)s qaratqich kelishigida qoʻshimcha olishi va Bäume koʻplik shakli bilan yaqqol koʻrinadi. Bunday qoidalarga amal qilish, ayniqsa, nemis tilida juda muhim. Chunki nemis tili grammatikasida toʻrtta kelishik mavjud boʻlib, uchta rodga tegishli boʻlgan otlar bevosita shu kelishiklarda uch xil, yaʼni turlicha turlanadi. Nemis lugʻatshunosligiga koʻra, genitiv kelishigida soʻzning qanday turlanishga ega boʻlishi, qaysi qoʻshimchani olishi aniq koʻrsatilishi shart. Yuqoridagi printsipting ingliz tilida unchalik ahamiyat kasb etmasligi mumkin. Ammo rus va nemis tillarida har bir soʻzning rod kategoriyasi alohida beriladi.

Elektron lugʻatning ishlab chiqilgandan soʻng foydalanuvchiga qulaylik jihatlari birma-bir taqdim etiladi.

–sohaga oid leksikani toʻrtta tilda oʻrganish imkoniyati mavjud;

–barcha darajadagi oʻrganuvchilarga toʻgʻri keladi;

–turistlar uchun juda qulay, chunki tillar tanlovi keng;

–taʼlimga yangi texnologiyalarni jalb qilish imkonini beradi;

–mobil ilovalar kitoblar, kompyuterlar va boshqa vositalarga nisbatan ixcham va kichikroq hajmga ega;

–taʼlim olishda ishtirok etayotgan talabalar tomonidan foydalanishini baholash mumkin;

–tezda tillardan tillarga tarjima qilish imkonini beradi.

Yana bir jihatni taʼkidlash joizki, COVID-19 pandemiyasi butun dunyo boʻylab koʻplab oʻzgarishlarni keltirib chiqardi va ular tez orada tilda ham oʻz aksini topdi. Barcha tillarga yuzlab yangi soʻzlar kiritildi. Bir qator soʻzlar maʼnosi oʻzgarib, boshqa soʻzlar, ayniqsa, tibbiy soʻzlarning aksariyati umumiy tilga oʻtishi kuzatildi.

Elektron lugʻat muharrirlari tildagi yangi oʻzgarishlarni zudlik bilan hujjatlashtirish va ularni elektron lugʻat yozuvlariga kiritishni muhim vazifa deb bilishadi. Barcha tillarda shu qariyb uch yildan beri COVID-19 pandemiyasi bilan bogʻliq atamalarni yigʻish va ularni leksikografik jihatdan tavsiflash boshlangan.<sup>2</sup> Buning uchun birinchi marta yangi soʻzlarni aniqlash va mavjud lugʻat yozuvlarini qayta koʻrib chiqish va yangilash ishlari amalga oshirilmoqda. Bosma lugʻatlardan farqli oʻlaroq, elektron lugʻatlarga yangi soʻzlarni kiritish, kerakli oʻrinlarda tahrirlash ishlari tez va sifatli kechadi. Bu ham elektron lugʻatning bir yutugʻi, qolaversa, afzalligini belgilaydi.

Elektron lugʻatning foydalanuvchiga qulay boʻlmagan jihatlari keltiriladi.

–elektron ilovaga yangilanishlarni kiritib boʻlmaydi;

–leksika hajmi cheklangan boʻlishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan maʼlum boʻladiki, elektron lugʻatlarning afzallik tomonlari juda koʻp. Ular taʼlimda zamon bilan hamnafaslikni koʻrsatib qolmasdan, til oʻrganishda raqamli texnologiyaning oʻrnini ham munosib belgilab beradi. Jarayonlar keyingi maqolalarda batafsil yoritib boriladi.

**Roʻziev Yarash Bozorovich (Buxoro davlat universiteti dotsenti, PhD; e-mail: [varasch@mail.ru](mailto:varasch@mail.ru))**

### **OʻZBEK TILIDA OʻZLASHTIRMA NUTQ VA GAP**

*Annotatsiya. Oʻzbek tilida oʻlashtirma nutq deganda koʻchirma gapdan sintaktik va morfologik yoʻl bilan hosil boʻluvchi oʻzlashtirmalik nazarda tutiladi. Oʻzlashtirmalikning birinchi turida koʻchirma gap ham shaklan ham mazmunan oʻzgarishga uchraydi. Koʻchirma gap shaklan birikma aniqrogʻi birikmali toʻldiruvchiga aylanadi. Shunga koʻra, fikr anglatuvchi til birligi murakkab tushuncha bildiruvchi*

<sup>1</sup> Tilovova G.A., Imyaminova Sh.S. Oʻzbekcha-nemischa-ruscha-lotinchacha oʻrmonchilikka oid soʻzlar lugʻati. T., ToshDAU tahririyat-nashriyot boʻlimi, 4-bet.

<sup>2</sup> <https://www.dwds.de/themenglossar/Corona>

*birikma shaklini oladi. Muallif gapida esa bayon nohissiy bo'lganda faqat uning kesimi vazifasidagi fe'l (de+di, de+gan edi, de+r edi va b.)ning o'zagi o'zgaradi (ayt+di, ayt+gan edi, ayt+ar edi va hokazo).*

**Аннотация.** *Несобственно-прямая речь в узбекском языке относится к типу речи, образованной синтаксически из производного предложения. При этом типе несобственно-прямой речи производное предложение изменяется как по форме, так и по содержанию. Словосочетание превращается в составное дополнение. Соответственно языковая единица, выражающая мысль, принимает форму сложного соединения, выражающего сложное понятие. В авторской речи при высказывании без эмоции изменяется только основа глагола (de+di, de+gan edi, de+r edi и др.) (ayt+di, ayt+gan edi, ayt+ar edi и др.).*

**Annotation.** *The indirect speech refers to the assimilation formed syntactically from the derived sentence. In this type of indirect speech, the derived sentence changes both in form and content. The phrase turns into a compound, more precisely, a compound complement. Accordingly, the language unit expressing thought takes the form of a compound expressing a complex concept. In the author's speech, when the statement is insensitive, only the stem of the verb (de+di, de+gan edi, de+r edi, etc.) is changed (ayt+di, ayt+gan edi, ayt+ar edi, etc.).*

**Kalit so'zlar:** *o'zga nutq, ko'chirma nutq, o'zlashtirma nutq, matn, mikromatn, makromatn, muallif nutqi, xabar manbasi, eshiltirilgan semasi, sintaktik vosita, morfologik vosita, nutq fe'li, til qurilishi, tejankorlik.*

**Ключевые слова:** *чужая речь, прямая речь, косвенная речь, текст, микротекст, макротекст, авторская речь, источник сообщения, сема слышимости, синтаксические средства, морфологические средства, речевой глагол, языковая конструкция, экономия.*

**Key words:** *foreign speech, direct speech, indirect speech, text, microtext, macrotext, author's speech, message source, audibility seme, syntactic means, morphological means, speech verb, language construction, economy.*

O'zgaralar nutqi nutqning alohida turi bo'lib, nutqiy vaziyatning alohida ko'rinishi hisoblanadi. Bunday holda monologda so'zlovchi (yozma nutqda muallif)ning nutqiga boshqa birovning nutqi, dialogda esa boshqa birovlarining nutqi qo'shiladi. So'zlovchining o'z nutqi obyekt bo'lib borliqdagi voqea-hodisa va faktlar xizmat qiladi. O'zining monologik nutqi vositasida so'zlovchi tinglovchi (adresat)ga borliq haqida axborot, ma'lumot beradi. So'zlovchining dialog tarzidagi o'z nutqi esa nutqiy amal (nutq akti) ishtirokchilarining borliq haqidagi suhbatidan iborat bo'ladi.<sup>1</sup>

O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikki usul, ya'ni sintaktik va morfologik yo'l bilan ifoda etiladi. Birinchi tur deganda ko'chirma gapdan sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalik nazarda tutiladi. O'zlashtirmalikning bu turida ko'chirma gap ham shaklan ham mazmunan o'zgarishga uchraydi. Ko'chirma gap shaklan birikma, aniqrog'i, birikmali to'ldiruvchiga aylanadi. Shunga ko'ra, fikr anglatuvchi til birligi murakkab tushuncha bildiruvchi birikma shaklini oladi. Muallif gapida esa bayon nohissiy bo'lganda faqat uning kesimi vazifasidagi fe'l (**de+di**, **de+gan edi**, **de+r edi** va b.)ning o'zagi o'zgaradi (**ayt+di**, **ayt+gan edi**, **ayt+ar edi** va hokazo).

Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. Uning bir necha andozasi bor, barchasi ikki qismdan iborat bo'ladi. Shulardan biri (o'zlashtirma xabar)ning birinchi qismi to'rt yoki besh uzvdan, ikkinchi qismi ikki uzvdan tuziladi. Ikkinchi qism vazifasida qo'llanuvchi so'zning soni cheklangan, birinchi qismda esa morfologik vosita soni chegaralangan. Jumladan, kelishik qo'shimchasidan faqat bittasi yoki u bilan vazifadosh bo'lgan ko'makchi ishlatiladi: *Ol+gan+i+ni ayt+di. Ol+ish+i+ni ayt+di. Ol+moq-chi+lig+i+ni ayt+di. Ol+gan+i haqida gapir+di* va hokazo.

Sho'ro davrida o'zlashtirmalikning, asosan, ana shu turi nazariy jihatdan tadqiq qilinib, oliy va o'rta ta'limga tatbiq etildi, ya'ni qoidalashtirilib, kodifikatsiya qilindi. Bu tur ko'chirma gap bilan qiyosan, u bilan bitta umumiy sarlavha (o'zga gap) ostida o'rganildi.

O'zlashtirmalikning o'zbek tili sintaktik qurilishiga xos-xos emasligi masalasida bahslashildi.<sup>2</sup> Mazkur ishlarda o'zga gapning tuzilishi, mazmuni va qo'llanishiga nisbatan mualliflarning munosabati bir xil emas. Chunonchi, ayrim tilshunosning fikriga ko'ra, ba'zi ko'chirma gap avtor gapiga nisbatan mustaqilligini saqlaydi. Shu bois uni bog'langan qo'shma gap deyish mumkin. Ikkinchi xil ko'chirma gap esa avtor gapini izohlab keladi va unga nisbatan ergash gap vazifasini bajaradi. Binobarin, bunday ko'-

<sup>1</sup> Зикриллаев Ф.Н. Рух ва тил. Тошкент, "Фан", 2018, 335 – 336-бетлар.

<sup>2</sup> Иминов А. Ўзлаштирма гап борми? "Ўзбек тили ва адабиёти", 1990, 3-сон, 3-бет.

chirma gap ergash gapga aylangan bo'ladi.<sup>1</sup> Akademik G'.Abdurahmonov fikriga ko'ra, o'zlashtirmalining birinchi turi zohiran sodda, mazmunan qo'shma gapga teng keladi. Shunga ko'ra, unda ikkita fikr ifodalanadi. Bu, ayniqsa, noqardosh tillar bilan qiyoslaganda yaqqol seziladi: *Kitob olganini aytdi. – Он сказал, что (он) покупал книгу. – Er sagte, daß er ein Buch gekauft hat.* O'zlashtirma gapning oliy o'quv yurti darsligida sodda gap shaklida bo'lishi e'tirof etiladi-yu qo'shma gap bahsida beriladi.<sup>2</sup> Bu rus tiliga taqlid oqibatidir. Chunki rus tilida o'zlashtirma gap ergashgan qo'shma gap shaklida bo'ladi.

Ko'chirma va muallif gapidan bitta sodda gap hosil bo'ladi. Til faktlariga murojaat qilamiz:

*U har safar devor oshganda, endi kolxozda “katta qoziq” bo'lganini aytib, Mehriга shon-shuhrat va'da qilar edi.*<sup>3</sup>

Ushbu misol murakkab sodda gap, kesimi mazmunan ikkita, uyushib kelgan. Ammo shaklan o'zbek adabiy tilining sintaktik qurilishi inobatga olinganidan birinchi qism predikativ shaklga ega emas (*aytib*). Bu shakl gapning oldingi qismini keyingi qismi bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Yozuvchi so'z bog'lovchi (*va*)ni qo'shimcha bog'lovchi (*-ib*) bilan almashtirgan. Natijada ikkala qism uzviy bog'langan. Shu nazarda tutilmasa muallif gapi kesimining to'liq shakli qo'llanib ega, kesim munosabati ifodasini topadi: *U ...aytar edi*. Bundan tashqari, shu bitta gap alohida abzas qilib berilgan. Bu bilan gapda ifodalanagan fikrni mikromatnning boshqa qismidan ajratib ko'rsatib unga o'quvchining diqqati jalb qilingan.

Endi ushbu misolning ruscha tarjimasini olib ko'raylik. *Добавим, что Зулфикаров не ограничивался вещественными дарами. Во время своих посещений он стремился также и поддерживать дух Мехри, говоря, что теперь он в колхозе большой человек, и намекая при этом, что-нибудь достанутся почести и даже слава* (206).

Tarjima ham alohida abzas qilib berilgan. Ammo uning hajmi asl nusxadan ikki baravardan ham katta. Buning boisi tarjimadagi birinchi gap asl nusxada yo'q. Bir necha so'z va birikma ham qo'shilgan. Bundan tashqari, o'zlashtirma gap uyushiq kesimining har biri mustaqil predikativ shaklga ega bo'lganidan ikkita o'zlashtirma gap hosil bo'lgan. Shunga ko'ra, tarjimada o'zbek matniga xos tejamkorlik aks etmagan. Ayni paytda, asl nusxada abzasning boshida qo'llangan sifatdosh birikma orqali yozuvchi o'quvchining diqqatini Zulfiqorov bilan Umidaning munosabati milliy axloq qoidalariga oddiy so'zlar qo'llanidan (*во время своих посещений*) ifoda asl nusxada nazarda tutilgan ta'sir kuchini yo'qotgan.

Nemischa tarjimadagi abzasning hajmi ruscha tarjimaga mos. Chunki birinchi gap qo'shilgan aniqrog'i oldingi abzasdan bu yoqqa ko'chirilgan. Boshqa ko'p jihat ham rus tiliga aynan o'xshash. Faqat abzasning o'zlashtirma gap qismida nemis tilining o'ziga xos grammatik xususiyati (qarang: 2.1) inobatga olingan. Nutq fe'li (*erklärte*)dan keyin bog'lovchisiz ergash gap qo'llangan bo'lib, so'z tartibi mustaqil sodda gapdagidek. Birinchi kesim prezens konyunktiv (*sei*), ikkinchi kesim imperfekt konyunktiv shakli orqali ifodalangan: *Es ist hinzuzufügen, daß Sulfikarows Geschenk nicht nur materieller Art waren. Während seiner Besuche bemühte er sich auch, Mechris moralische Verfassung zu helfen, indem er erklärte, er sei jetzt in der Kolchose ein großer Mann, und irgendwann einmal würde auch ihr, Mechri, mit seiner Hilfe Ehre und Ruhm zuteile* (112–113).

Bitta sodda gapda ikkita ko'chirma gap o'zlashtirib bayon qilinishi mumkin: *Qalandarov byuro sostaviga taklif qilgan nomzodlaridan Usmonjon Umarov o'tmaganini, uning o'rniga Ismoiljon Normatov o'tganini* eshitib, garchi shu odamni taklif qilish esiga kelmaganiga ichidan achinsa ham, jon-poni chiqib ketdi (85).

Bu misolda ham muallif gapining kesimi fe'l bo'lsa-da, noto'liq predikativ shaklga ega. Fe'l o'zagi xabarning o'zlashtirilganini anglatib, qo'shimchasi (*-ib*)gapning oldingi qismini muallif gapining to'liq shakllangan kesimi bilan bog'laydi (*jon-poni chiqib ketdi*). Muhim farq shuki ikkita ko'chirma gap o'zlashtirilganidan birikmali to'ldiruvchi ikki marta qo'llangan. Nutqiy maqsad talabi bilan gap tarkibidagi yetakchi so'zlarning valentligi voqelanganidan o'zlashtirma gap ancha kengaygan. Yana o'zlashtirma xabar abzasning birinchi gapi, abzas esa bo'limning birinchi abzasi ekanligi nazarda tutilsa, unga mantiqiy urg'u tushgan deyish mumkin. Muallif gapining egasi atoqli ot (Qalandarov) bilan ifoda etilgan bo'lib, tasvirlangan voqea-hodisa shu shaxsga daxldor. Nutqiy vaziyat talabiga ko'ra, yozuvchi atigi ikkita gapni alohida abzas qilib, Qalandarovning salbiy munosabatini yuqori darajada birinchisida lug'aviy vosita, ik-

<sup>1</sup> Назарова Х. Эски ўзбек ёзма ёдгорликларида кўчирма гапларнинг қўлланиши. Тошкент, 1959, 9-бет.

<sup>2</sup> Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1987.

<sup>3</sup> Mazkur maqoladagi tahlilga tortilgan misollar A.Qahhorning “Sinchalak” asari va uning ruscha (Ptichka nevelichka) hamda nemischa (Sekretär Saida) tarjimalaridan olindi.

kinchisida, bundan tashqari, grammatik vosita hamda nolisoniy omil (yozuvda undov belgisi) orqali ifodalangan (Bu gap misolda berilmagan).

Ruscha tarjimada asl nusxadagi bayon tarzi o'zgartirilgan. Oqibatda atigi ikkita gap oltita katta-kichik gapga aylanib, o'n bir qatorli abzas hosil bo'lgan. Tarjimon abzasning boshidan oxirigacha diqqate'tiborni Qalandarovning salbiy xususiyatini bo'rttirib bayon qilishga qaratgan. Shu bois to'rt o'rinda undov belgisi qo'yilgan. O'zlashtirma xabardan atigi noto'liq kesim ravishdosh shaklida (*uznav*) berilgan, xolos. O'zlashtirmalikni ifodalash uchun xoslangan to'ldiruvchi ergash gapdan foydalanilmagan. Ism familiyasi keltirilgan shaxsdan bittasi tushirib qoldirilgan, ikkinchisining faqat ismi aytilgan va hokazo. Xullas, yozuvchining o'ziga xos uslubidan asar ham qolmagan. Mana o'sha abzas:

*Узнав о случившемся, Каландаров был не в себе. В конце концов он, пожалуй, мог бы и сам выдвинуть кандидатуру Исмаилджана, черт с ним, пусть бы был в бюро, он, Каландаров, вовсе не такой злопамятный, каким его считают! Его бесил не сам факт избрания Исмаилджана, а то, что он, Каландаров, внес предложение – хорошее или плохое, другой вопрос – и это предложение было отвергнуто! Он внес, а Саида отвергла! Вес свой гнев он теперь сосредоточил именно и персонально на Саиде. А остальные тоже хороши, уже готово, пошли у нее на поводу!* (175–176).

Nemis tarjimoni ruscha matnga asoslanganidan ko'pchilik qusur aynan takrorlangan. U ham o'zlashtirma gap qo'llamagan. Muallif gapining kesimini to'liq predikativ shaklda (*erfuhr*) ishlatgan, xolos. Yozuvchi uslubiga rioya qilmaslik oqibatida abzasga gap soni rus tilidagidan ham bitta ko'paygan. Qo'llangan iboralardan ayrimining ma'nosi rus tilidagidek asl nusxadan keskin farq qiladi. Masalan: *ichida achinsa ham – chert s nim – der Teufel sollte ihn holen!* va b. Boshqa xato va qusurlar ham borligidan abzasni to'liq keltiramiz:

*Als Kalandarow erfuhr, was vorgefallen war, geriet er außer sich. Schließlich hätte er auch selbst Ismaildshan – der Teufel sollte ihn holen! – nominieren können. Sollte er doch in die Leitung hinein, er, Kalandarow, war gar nicht so übelnehmerisch, wie man glaubte! Nicht so sehr, daß Ismaildshan gewählt war, brachte ihn in Hornisch als vielmehr das: Er, Kalandarow, machte einen Vorschlag – ob gut oder schlecht, war eine andere Sache, – und dieser Vorschlag wurde einfach abgelehnt! Er machte ihn, und Saida lehnte ihn ab! Sein ganzer Zorn richtete sich jetzt speziell und persönlich gegen Saida, und die anderen, natürlich, die waren gleich bereit, ließen sich von ihr ins Schlepptau nehmen!* (75).

O'zbek tilida o'zlashtirmalik ikki usul bilan ifoda etiladi: biri sintaktik, biri morfologik. Sintaktik yo'l bilan hosil bo'luvchi o'zlashtirmalikning eng kichik ko'rinishi ikkita o'zak, negizga qo'shimcha yoki yordamchi so'z qo'shish bilan yasaladi. Uning bir necha andozasi bor, barchasi ikki qismdan iborat bo'ladi. Shulardan biri (o'zlashtirma xabar)ning birinchi qismi to'rt yoki besh uzvdan, ikkinchi qismi ikki uzvdan tuziladi. Ikkinchi qism vazifasida qo'llanuvchi so'zning soni cheklangan, birinchi qismda esa morfologik vosita soni chegaralangan. Jumladan, kelishik qo'shimchasidan faqat bittasi yoki u bilan vazifadosh bo'lgan ko'makchi ishlatiladi.

**Xolboyeva Dilshoda Sapar qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti 2-kurs magistranti),  
Uralova Oysulov Payon qizi (filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori)  
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OLAM LISONIY MANZARASINING FRAZEMALAR  
ORQALI IFODALANISHI**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida olam lisoniy manzarasining frazemalar orqali ifodalanishi, leksik va frazeologik ma'nolarning parallel ravishda kelishi, ingliz va o'zbek tillari frazemalari milliy-madaniy xususiyatlarini chog'ishtirib o'rganish haqida batafsil bayon etilgan.*

**Аннотация.** *В данной статье подробно описывается выражение языкового ландшафта мира через идиомы в английском и узбекском языках, параллельное возникновение лексических и фразеологических значений, изучение национально-культурных особенностей идиом английского и узбекского языков.*

**Annotation.** *This article describes in detail the expression of the linguistic landscape of the world through idioms in English and Uzbek languages, the parallel occurrence of lexical and phraseological meanings, the study of national and cultural characteristics of idioms of English and Uzbek languages.*

**Kalit so'zlar:** *chog'ishtirish, lisoniy manzara, frazema, leksik ma'no, tagtizim birlik, eksplitsit shakl.*

**Ключевые слова:** *сочетание, языковой ландшафт, словосочетание, лексическое значение, структурное единство, эксплицитная форма.*

<b>Abdualimov Rufat Uchqun o'g'li.</b> 15–16 yoshdagi basketbol va stritbolchi o'smirlarning jismoniy tayyor- garligining samaradorligi.....	111
<b>Masharipov Azamat Komuljonovich, Sobirova Asalxon Muzaffarovna, Bekmurotov Imomali Ergash o'g'li.</b> Turistik sayrlarda jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlarni o'tkazish uslubiyati.....	114
<b>Toshpulatova Shaxlo Ochilovna.</b> Bo'lajak fizika o'qituvchining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlan- tirish metodikasini takomillashtirishda nostandart test va PISA dasturidan foydalanish.....	119
<b>Razzoqov Davron Niyazovich, Taymurodova Nafosat.</b> Bo'lajak kadrlarning universal ko'nikmalarini shakl- lantirish–davr talabi.....	122
<b>Бердиев Нор Орзиевич, Сапарбаева Эркиной Давлатбоевна.</b> Таълим тизимида инновацион ёндашув- лар даврида ижтимоий-гуманитар фанлар ўқитилишининг аҳамияти.....	127
<b>Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna, Ravshanqulov Abbos Ravshanqul o'g'li, Ollaberganova Muyassar Davlatboy qizi.</b> Pedagogik dasturiy vosita yordamida didaktik topshiriqlar ishlab chiqish.....	129
<b>Tilemuratova Gulnaz Tajibay kizi.</b> Qoraqalpoq adabiyotini o'qitishda xalq og'zaki ijodidan foydala- nish usullari.....	133
<b>Исмаилов Анвар Рустамович.</b> Способы совершенствования педагогической компетенции препода- вателя иностранного языка в системе высшего образования.....	135
<b>Абубакирова Нодирабегим Рафисовна.</b> Роль и место самообразовательной компетенции в структуре общепрофессиональной компетентности будущих учителей английского языка.....	139
<b>Norboyeva Shaxnoza Shuxratovna.</b> The Main Characteristics of Video Materials to Develop Students' Spoken Production.....	141
<b>Ergasheva Mushtariybegim Faxriddin qizi.</b> Enhancing Students' Writing Skills through Case Study Method.....	144
<b>Toshova Gulnoza Tojnorovna.</b> Communicative Exercises in Developing Reproductive Skills in English Classes.....	147
<b>Karimova Guljakhon Zarifovna.</b> Teaching and Presenting Vocabulary in Upper Classes of Secondary Schools.....	150
<b>Alikulova Mokhinur Uktam kizi, Uralova Oysuluv Payon kizi.</b> Enhancing Learners' Speaking Skills through Tongue Twisters and Riddles in Secondary School.....	152
<b>Arifbaeva Munisa Abdullaevna.</b> Strategies to Support Reluctant Students to Speak up.....	155

## ILMIY AXBOROT

<b>Ergasheva Hayotxon Samandarovna.</b> Burhoniddin Marg'inoniy asarlarida oila tarbiyasining ijtimoiy aha- miyati.....	158
<b>Bekchanov Doniyor.</b> Xorazm jadidlarining ta'limni rivojlanishiga qo'shgan hissalarini.....	160
<b>Karimov Habibulla Qadamboyevich.</b> Gender tengligi g'oyasining diniy va tarixiy asoslari.....	162
<b>Казаков Илхом Розмаматович.</b> Ўзбек тилшунослигида тил ва маданият алоқадорлиги тавсифи....	165
<b>Tilovova Gavhar Abdaxatovna.</b> O'rmonchilik terminlarining ko'p tilli elektron lug'atini tuzish masalala- ri.....	168
<b>Ro'ziev Yarash Bozorovich.</b> O'zbek tilida o'zlashtirma nutq va gap.....	171
<b>Xolboyeva Dilshoda Sapar qizi, Uralova Oysuluv Payon qizi.</b> Ingliz va o'zbek tillarida olam lisoniy manza- rasining frazemalar orqali ifodalanishi.....	174
<b>Бекбутаева Хосият Якубовна, Қодирова Муқаддас Тоғаевна.</b> Инсон образини ифода этувчи фразео- логик бирликлар чоғиштирма тадқиқи.....	177
<b>Jabborova Mahliyo Doniyor qizi, Uralova Oysuluv Payon qizi.</b> Ingliz tilidagi teledasturlarning tili va uslu- bi.....	180
<b>Uroqova Dildora Ibragimovna.</b> Ingliz va o'zbek tillaridagi milliy cholg'u asboblariга oid leksik birliklar- ning qiyosiy tahlili.....	182
<b>Раимжанова Угилхон Номановна.</b> Формирование национальной ценности семьи в условиях глоба- лизации – требование времени.....	185
<b>Садыкова Робия.</b> Изображение детской психологии в произведениях Н.Носова.....	189
<b>Kichikova Mexriniso Umar kizi.</b> Ways of Rendering Uzbek Exotic Plants into English.....	192
<b>Turumbetova Zamira Yusupbayevna.</b> Integrative Approach of the Higher Education System of Economi- cally Developed Foreign Countries.....	194